

## BADIIY MATNLARDA “ONA” KONSEPTI TADQIQI

**Ganiyeva Dildora**

*filologiya fanlari doktori, Farg‘ona davlat universiteti dotsenti*

**Qodirqulova Ruxshona**

*Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

### ARTICLE INFO.

**Keywords:**

*konsept, ona siymosi, ayol, qissa, mentalitet.*

### ABSTRACT

*Contemporary advancements in Internet technologies and the In this article, the concept widely used in linguistics and the images of the concept of "mother" in Uzbek and English literature, the place of their use, the difference between the level of artistic coloring of the images are highlighted.*

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

*“Odamning qalbida qanday oliyjanob tuyg‘ular mavjud bo‘lsa, ularning barchasi avvalo onadandir”.*

Har bir mamlakatning o‘ziga xos adabiyot yo‘nalishi, san‘at yo‘nalishi mavjud. Shu jumladan o‘zbek adabiyotida ham boshqalarnikiga o‘xshamagan tushunchalar va terminlar bor. Har bir so‘z alohida ma‘no-mazmun ifodalaydi va bu so‘zlarning alohida ishlatilish o‘rni bor.

Avvalambor, “konsept” tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu tushuncha XX asrdan boshlab foydalanilayotgan bo‘lsa-da, uning asosiy, aniq talqini haligacha yo‘q. Buning ustida tadqiqot olib borgan tilshunos olimlardan biri S.A.Askoldov konseptga “Bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlik” deb izoh beradi

Boshqa bir olimning fikriga ko‘ra “Konsept og‘zaki belgining nutq tomonidir, tushuncha esa voqelik.” Umumiy qilib aytganda konsept insonning ongida tushunchaning aksi hisoblanib, so‘z ifodalayotgan ma‘no va tushuncha o‘rtasidagi yaqinlik orqali hosil bo‘ladi. Bundan taqshqari konsept bu shunchaki ilmiy va ensklopedik bilimlarning mujassamligi emas, balki u faqat millatga tegishli bo‘lgan tushunchalarni ifodalaydi.

Adabiyotimizda “ayol, “ona” kabi tushunchalar mavjud. Ular madaniyatning muhim tushunchalari hisoblanadi. Bugungi kundagi ilm-fanda “ona” konseptining tarixi – bu butun bir g‘oyaning hosil bo‘lishi va rivolanish tarixi bo‘lib, u zamon almashishi bilan asta-sekin hozirgi dunyoning turli xildagi ma‘nolari bilan boyiydi. Har qanday ona tavsirlangan yangi yaratilgan asarda “ona” tushunchasi qaytadan tug‘iladi. Chunki har bir yozuvchi ona siymosini boshqa yozuvchilardan farqli ravishda o‘z talqinida chizadi. Ayan shu narsa uni boshqalardan ajratib turadi. Faqatgina badiiy adabiyotda emas, xalq og‘zaki ijodida ham, folklorida ham mavjud – har bir asardagi ona siymosining o‘ziga xosligi. Bizning milliy adabiyotimizda, umuman olganda, milliy mentalitetimizda onaga nisbatan boshqacha hurmat va mehr bila qaraladi. Chunki bunday munosabat xalqimizda azaldan mavjud bo‘lib, o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan, har bir yosh avlodda tabiiy ravishda gavdalanadi.

Yozuvchilar asarlarini real hayotdan oladi, dunyoda bo'layotga hodisalarni boshqa dunyo – adabiyot dunyosiga – olib kiradi. Tabiiyki, hodisadagi personajlar va ularga bo'lgan munosabatlarni ham. Adabiyotdagi “ona”konsepti ham shunday. Ya'ni hayotda onalarga qanday ehtirom ko'rsatilsa, asar qahramonlari orqali ham onalarga shunday, balki bundan ham yuqoriroq hurmat ko'rsatidi. Boshqa xalq adabiyotlaridan, misol uchun ingliz adabiyotlarini oladigan bo'lsak ularda biznikidan sezilarli darajada farqa qiladi. Chunki ularning mentaliteti bizniki bilan bir xil emas. Ulardagi urf-odatlar, farzand tarbiyasi, kattalarga hurmat va boshqa shunga o'xshash narsalar biznikidan tubdan farq qiladi. Misol uchun, inglizlarlarda, umuman, yevropa va boshqa davlatlarda farzandni ota-ona o'n sakkiz yoshgacha tarbiyalab, uning moliyaviy ehtiyojlarini qondiradilar va undan keyin farzand mustaqil bo'lish uchun o'z hayotini qurish uchun ota-ona qaramog'idan chiqadi. Bizda esa farzand qancha kata bo'lmasin ota-ona uchun farzand yoshligicha qoladi, asarlarda “Bolam yuz yosh bo'lsang ham men uchun hali ham yosh bolasan” degan parchalarni o'qib qolamiz. Darhaqiqat, ota-onalar uchun farzand doimo yosh bo'lib qoladi, hattoki farzandlar sakson yosh bo'lsa ham.

Ona siymosi baracha xalqlar uchun aziz va mo'tabardir. Onalar madh etilgan asarlar adabiyotimizda juda ko'p. Onalar haqida go'zal va takrorlanmas asar yaratuvchilaridan biri O'tkir Hoshimovdir. Uning “Dunyoning ishlari”qissasi biz uchun eng yaxshi misol bo'la oladi. Bu asarda to'laligicha onalar, o'zbek onalari ta'riflangan. Bu qissa katta-kichik hikoyalardan iborat bo'lib, bir necha yillar davomida yozilgan. Asar haqida kitobxonlardan ko'plab yaxshi fikrlar eshitishimiz mumkin. O'zbeiston xalq yozuvchisi Said Ahmad: “ “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas dostondek o'qilishini istardim.”,- deydi. Haqiqatan ham bu asar dostondek o'qiladi.

O'tkir Hoshimov ushbu qissasida Sepkili xola, Zebi xola, Bashorat xola, Acha xola, Risolat opa, Hoji buvi kabi obrazlar yaratadi hamda ularni bir estetik markaz – ona siymosi atrofiga yig'adi. Bu asarda ona so'zi bilan “mushtipar”, “mehribon”, “dardkash” kabi sifatlar ishlatilgan. Bu sifatlar asardagi ona siymosini yanada buyuklashtirib, asarning badiiy darajasini oshirishga xizmat qilgan. Ya'ni ularning barchasi alohida o'zida aks ettirgan “g'oyaviy yuk”ni badiiy chizgi bilan mukammallashtirgan.

Bunday onalar madh etilgan asarlar boshqa xalqlarda ham mavjud. Misol qilib ingliz adabiyotini olaylik. Kuzatishlar va tajribalarga asoslanib shuni ayta olamizki, shu kungacha bu xalq adabiyotining har bir adabiy davrida ayol va ona tasvirlangan asarlar yaratilgan. Shuningdek, “G'urur va andisha” asaridagi Elizabet Bannet xarakteri, Charlotta Brontening “Jeyn Eyr” asaridagi Jeyn Eyer obrazi, Margaret Mitchellning “Shamollada qolgan hislarim” asaridagi Skarlet O'hara obrazi kabilar shular jumlasidandir. Yuqoridagi asarlarda ona va ayol siymolari aks ettirilgan bo'lib, ular bilan bir qatorda ingliz madaniyatidagi onalarga bo'lgan munosbat ham keltirilgan. To'g'ri ularda ham onalarga bo'lgan mehr, hurmat, ehtirom va iliq munosbatlar yuksak darajada. Ular ham onalarni ko'klarga ko'tarib ertak, qissa, roman, she'r yozishadi. Misol uchun Charlotta Brontening “Jeyn Eyr” asaridagi Jeyn Eyr bosh qahramon bo'lib, uning hayotida ko'plab qiyinchiliklar, har xil kutilmagan hodisalar sodir bo'ladi. Shunda ham qahramon sinovlarni yengib o'tib, baxtli bo'lishga harakat qiladi. Bundan esa kitobxon o'ziga kata ma'naviy ozuqa oladi, ya'ni muammolar kelganda ulardan qochishni o'rniga o'sha muammolarni yengishni o'rganadilar. Bu asar ham ingliz adabiyotida ayollarning qanday kuchi ekanliklarini ko'rsatib beruvchi asarlardan biridir. Umuman olganda asar romantik ruhda yozilgan va ko'p qismlari hayoliy bo'lib, real hayotdan olingan joylari ham bor. Ayollar madh etilgan asarlar borki, ular jozibali va kitobxon undan nimdir yangi narsa o'rganishi yoki ularning ya'ni ayollarning qanday qilib hayot sinovlariga chidab, sinovlarni yengib o'tishga qanday kuch topganini ko'rishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan asar bosh qahramon obrazi bilan “jasur”, “sabrlil”, “kuchli” kabi sifatlar ishlatilgan. Bu sifatlar bosh qahramon Eyn obrazini yanada mukammallashtirgan va asardagi bu qahramonning badiiy salohiyatini yanada oshirgan.

Xulosa o'rnida shuni anglashimiz kerakki, ingliz ayollari ham kuchli, sabrli va tashabbuskor bo'lishadi. Onalari ham shunday. Farzandlari uchun har qanday mushkul ishga tayyor ekanligini anglash qiyin emas. Lekin o'zbek adabiyotidagi ayollar siymosini o'rta qo'ysak, ular yanada kuchliroq va sabrliroq

bo'lishni ko'rishmiz mumkin. Chunki bizning qonimizga singigan ona siymosiga hurmatni baholashning iloji yo'q. Hech kim buni hech qanday yo'l bilan rad qila olmaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”ning o‘zaro farqlanishi. B.G‘ulomova. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/377>. [239, 2181-4570]
2. Zamonaviy tilshunoslikda konsept va tushuncha. G.N.Abdullayeva. [https://sg.docworkspace.com/d/sINufpfHoAe\\_jr7AG](https://sg.docworkspace.com/d/sINufpfHoAe_jr7AG)
3. Ingliz va o‘zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri. O.Yozdonqulova <https://sg.docworkspace.com/d/sIDafpfHoAbiXkK8G>
4. XX asr o‘zbek yozuvchilari ijodida ona obrazi. S.Shermamatova, D.Karimova. <https://sg.docworkspace.com/d/sIOKfpfHoAYGXkK8G>
5. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida ayol va zamon qiyofasi. A.Atajanova <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tkir-hoshimovning-dunyoning-ishlari-qissasida-ayol-va-zamon-qiyofasi/viewer> [266, 2181-2489]
7. Ingliz tilidagi “mother” konseptining ilmiy paradigmada tahlil qilinishi. M.Ozotboyeva. <https://sg.docworkspace.com/d/s> .